

**O‘ZBEKISTON MEDIA MAKONIDA SPORT INTERNET NASHRLARINING SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA INTERAKTIV MODELGA O‘TISHI**

To‘raqulov Sherzod Shokir o‘g‘li

O‘zJOKU 2-bosqich magistranti

[sherzodturakulov4096@gmail.com](mailto:sherzodturakulov4096@gmail.com)

**MAQOLA MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received:18.02.2026

Revised: 19.02.2026

Accepted:20.02.2026

**KALIT SO‘ZLAR:**

Axborot tarqatish,interaktiv model, internet nashrlar,multimedia, platformaviy kengayish, raqamli jurnalistika,sport jurnalistikasi,sport saytlar,tahliliy kontent

*Ushbu maqola O‘zbekiston media makonida sport internet nashrlarining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va interaktiv modelga o‘tishini tahlil qiladi. Tarixiy jihatdan sport jurnalistikasi jadid matbuotidan boshlab sovet davri mafkuraviy kommunikatsiyasigacha rivojlanib, mustaqillikdan keyin bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha mazmun va shakl kasb etdi. Raqamli transformatsiya esa sport saytlarining an‘anaviy “translyator modeli”dan interaktiv, multimedaviy va foydalanuvchi markazli modelga o‘tishini ta‘minladi. Maqolada sport saytlarining platformaviy kengayishi, mobil ilovalar integratsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar bilan sintez va monetizatsiya mexanizmlari orqali media tizimidagi o‘rni hamda auditoriya bilan interaktiv muloqoti tahlil qilinadi*

**Kirish**

O‘zbekiston media makonida sport jurnalistikasi shakllanishi va rivojlanishi tarixiy, ijtimoiy va texnologik omillarning uyg‘unligiga bog‘liq murakkab jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. XX asr boshlarida jadid matbuoti sahifalarida jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi va sport musobaqalari haqida ilk ma‘lumotlar paydo bo‘ldi. Shu davrda sport alohida

ixtisoslashgan yoʻnalish sifatida emas, balki maʼrifiy-ijtimoiy diskursning bir qismi sifatida yoritilgan.

Sovet davrida sport jurnalistikasi ijtimoiy va mafkuraviy kommunikatsiya vositasi sifatida shakllanib, ommaviy axborot vositalari orqali sport yutuqlari va qahramon sportchi obrazlarini targʻib qilgan. 1991-yilda Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, sport jurnalistikasi mazmun va shakl jihatidan yangilanish bosqichiga oʻtdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida media mustaqilligi va raqobat muhiti sport saytlarining rivojlanishini tezlashtirdi, interaktiv va multimedia elementlari bilan boyitilgan foydalanuvchi markazli platformalar paydo boʻldi.

Raqamli jurnalistika sharoitida sport saytlarining paydo boʻlishi anʼanaviy “translyator modeli”dan interaktiv, foydalanuvchi markazli va multimedia modeliga oʻtishini taʼminladi. Bugungi kunda Oʻzbekiston sport saytlarining media tizimidagi oʻrni ularning texnologik moslashuvchanligi, platformaviy kengayishi, mobil ilovalar integratsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar bilan sintezi va auditoriya bilan uzluksiz interaktiv aloqasi orqali belgilanadi. Shu jihatdan sport saytlarining rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda oʻrganish raqamli jurnalistika nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### **Tadqiqot metodlari:**

Tarixiy-tahliliy metod – sport jurnalistikasining jadid matbuotidan boshlab sovet davri va mustaqillik davridagi rivojlanish bosqichlarini oʻrganish.

Empirik kuzatuv va monitoring – sport saytlarining platformaviy kengayishi, mobil ilovalar integratsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar bilan sintez va auditoriya bilan interaktiv aloqasini kuzatish.

Ushbu metodlar Oʻzbekiston sport internet nashrlarining shakllanishi, rivojlanish tendensiyalari va interaktiv modelga oʻtish jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

#### **Oʻzbekistonda sport jurnalistikasining evolyutsiyasi: tarixiy rivojlanish va nazariy asoslar**

Oʻzbekistonda sport jurnalistikasining shakllanishi milliy matbuot taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliqdir. XX asr boshlarida jadid matbuoti sahifalarida jismoniy tarbiya, sogʻlom turmush tarzi va sport musobaqalari haqida ilk maʼlumotlar paydo boʻla boshladi.

Xususan, Turkiston viloyatining gazetasi hamda Sadoi Turkiston sahifalarida jismoniy chiniqish va milliy o'yinlar haqida xabar va maqolalar berilgan.<sup>81</sup>

Bu davrda sport alohida ixtisoslashgan jurnalistik yo'nalish sifatida emas, balki ma'rifiy-ijtimoiy diskursning bir qismi sifatida yoritilgan. Sport materiallari ko'proq tarbiyaviy va sog'lomlashtirish g'oyalari asoslangan bo'lib, axborotdan ko'ra targ'ibot xarakteriga ega edi. Nazariy jihatdan bu bosqich ijtimoiy-madaniy paradigma doirasida tushuntiriladi. Ya'ni sport jurnalistikasi jamiyatni modernizatsiya qilish, yoshlarni sog'lom ruhda tarbiyalash vositasi sifatida talqin qilingan.

Sovet davrida sport jurnalistikasi alohida ixtisoslashgan yo'nalish sifatida shakllandi. Bu davrda sport siyosiy-ideologik vosita sifatida qaralib, ommaviy axborot vositalari orqali sport yutuqlari targ'ib qilindi. Respublikada sportga ixtisoslashgan sahifalar, ruknlar va maxsus nashrlar paydo bo'ldi. Masalan, "Fizkultura va sport" gazetasi sport hayotini muntazam yoritgan.<sup>82</sup>

Televideniye va radio orqali sport reportajlari efirga uzatila boshladi. Bu davr sport jurnalistikasining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Davlat mafkurasi bilan uyg'unlik;
- Sport yutuqlarini ideallashtirish;
- Qahramon sportchi obrazini yaratish;
- Statistik va informatsion janrlarning ustuvorligi.

Nazariy asos sifatida normativ nazariya (matbuotning davlat manfaatlariga xizmat qilishi) hamda propaganda modeli ustuvor bo'lgan. Sport jurnalistikasi mustaqil analitik yo'nalish emas, balki mafkuraviy kommunikatsiya vositasi sifatida faoliyat yuritgan.

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sport jurnalistikasi mazmun va shakl jihatidan yangilanish bosqichiga o'tdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida OAVning iqtisodiy mustaqilligi sport mavzusini yoritishda raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Sportga ixtisoslashgan nashrlar va teleko'rsatuvlar soni ortdi. Jumladan, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimida sport dasturlari kengaydi. Xalqaro musobaqalarda milliy terma jamoalar ishtiroki sport jurnalistikasining mavzu doirasini kengaytirdi.

Bu davrning asosiy xususiyatlari:

<sup>81</sup> Turkiston viloyatining gazetasi, 1910–1917 yillar; Sadoi Turkiston, 1912–1917 yillar. Ma'lumot O'zbekiston jurnalistikasi tarixi va jadid matbuoti tahlili asosida umumlashtirilgan (Mamatqulov R. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent: 2018).

<sup>82</sup> Fizkultura va sport, 1945–1991 yillar. Ma'lumotlar O'zbekiston Sovet davri matbuoti va sport jurnalistikasi tarixi asosida umumlashtirilgan (Mamatqulov R. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent: 2018).

Axborot va tahliliy janrlarning rivojlanishi;  
Sport marketingi va reklama bilan integratsiya;  
Xalqaro sport maydoniga chiqish;  
Professional sport jurnalistlari korpusining shakllanishi.

Nazariy jihatdan bu bosqich liberal-pluralistik model hamda ommaviy kommunikatsiya nazariyasi asosida izohlanadi. Sport jurnalistikasi auditoriya talabiga mos ravishda bozor mexanizmlariga tayangan holda rivojlana boshladi.

Raqamli jurnalistika nazariyasida sport saytlari an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqli ravishda interaktiv kommunikatsiya modeliga asoslanadi. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, raqamli platformalar sport axborotini yetkazishda biryo'nalishli uzatish tizimini o'zgartirib, foydalanuvchi markazli va interaktiv tajriba shaklini yuzaga keltirgan. Xususan, auditoriya real vaqt rejimida yangilanishlar, video lavhalar va arxiv materiallariga mustaqil ravishda murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.<sup>83</sup>

Mazkur jarayon sport saytlarining funksional modelini ham o'zgartirmoqda. Endilikda sport media platformalari nafaqat axborot uzatuvchi, balki auditoriya bilan ikki tomonlama muloqot qiluvchi tizim sifatida faoliyat yuritadi.

#### **Raqamli jurnalistika sharoitida sport saytlarining paydo bo'lish omillari**

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet infratuzilmasining kengayishi sport axborotini tezkor va ommaviy tarzda tarqatish zaruratini yuzaga keltirib, sport saytlarining paydo bo'lishiga asosiy texnologik omil bo'ldi. Jamiyatda sportga bo'lgan qiziqishning ortishi hamda auditoriyaning real vaqt rejimidagi yangiliklarga ehtiyoji ixtisoslashgan onlayn platformalarni shakllantirishni taqozo etdi. An'anaviy ommaviy axborot vositalarining raqamli transformatsiyasi va konvergensiya jarayonlari sport kontentini internet muhitiga ko'chirish orqali mustaqil sport saytlarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Multimediaviylik, interaktivlik va gipermatnlilik kabi raqamli jurnalistika xususiyatlari sport voqealarini yanada jonli va ta'sirchan yoritish imkonini berib, maxsus sport platformalariga ehtiyojni kuchaytirdi.

Media bozorida raqobatning kuchayishi va reklama hamda monetizatsiya mexanizmlarining kengayishi sport saytlarini iqtisodiy jihatdan barqaror media modeli sifatida shakllantirdi. Ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya hamda foydalanuvchi yaratgan

<sup>83</sup> Yılmaz Ö. The Effects of Digitalisation on Journalism: Changes and Transformations in Turkish Sports Journalism // İletişim Kuram ve Araştırma Dergisi. – 2025. – Vol. 70. – P. 35.

kontent konsepsiyasining ommalashuvi sport saytlarini auditoriya bilan doimiy muloqot olib boruvchi interaktiv media maydoniga aylantirdi.

"Jurnalistikada har qanday usulda olingan axborot – eksklyuzivmi, onlaynmi, oflaynmi yoki qimmatli insayd axborotlarni ularning vizualizatsiyasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmas ekan, bu ham saytning muvaffaqiyatiga rahna solibqo‘yadi. Qilingan barcha xatti-harakatlarni yo‘qqa chiqaradi. Shu bois dunyoga mashhur saytlarning axborotlari shu qadar batartib vizualizatsiya qilinadiki, uning ichiga kirgan kuzatuvchi saytdan chiqib ketishga bahona topolmaydi, balki ushbu saytning barcha jabhalarini birma-bir “varaqlab” chiqadi, undagi ma’lumotlarni olish asnosida ko‘proq saytda qolib ketganini bilmay qoladi."<sup>84</sup>

"**Sport sayti** – global tarmoqda sportning barcha turlari va ko‘rinishlariga oid ma’lumotlarni to‘plash, saqlash va uzatish uchun mo‘ljallangan eng optimal platforma. Mamlakatimizda sport saytlari XX asrning birinchi o‘n yilligida o‘zini namoyon qila boshladi. Shu tariqa o‘zbek milliy Internet segmentida sport sayti tushunchasi paydo bo‘ldi. Internetning rivojlanishi va jamiyat hayotiga tobora chuqur singib borishi ortidan dunyoga kela boshlagan birinchi o‘zbek sport saytlari o‘z ishqibozlari va muxlislarini qiynalmay topa boshladi. 2006-yil 3-may kuni ro‘yxatdan o‘tgan UFF.uz - O‘zbekistonda futbol xabarlari – veb-sayti tez orada o‘z mavqeyi va muxlislar auditoriyasiga ega bo‘ldi 2007-yil 20-yanvarda ro‘yxatdan o‘tgan InterFUTBOL gazetasi – ning Internetdagi veb-sayti – interfutbol.uz sayti an’anaviy ommaviy axborot vositalarining ilk Internetdagi versiyasi sifatida o‘z faoliyatini boshladi. Bugungi kunga kelib sport sohalaridan kelib chiqqan holda tashkil etilgan sport saytlari va sahifalari soni bir necha barobarga ortdi."<sup>85</sup>

Sport saytlarining O‘zbekistonda shakllanish jarayoni milliy internet segmentining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda kechganini kuzatish mumkin. Dastlabki sport saytlarining paydo bo‘lishi nafaqat axborot uzatishning yangi shaklini, balki sport jurnalistikasining raqamli transformatsiyasini boshlab bergan muhim bosqich bo‘ldi. Xususan, 2000-yillarning birinchi o‘n yilligida ro‘yxatdan o‘tgan ixtisoslashgan futbol saytlarining faoliyati sport kontentining tezkorligi, ommabopligi va auditoriyaga yo‘naltirilganligini ta’minladi. An’anaviy OAVning internet versiyalari esa media

<sup>84</sup> Boborajabov E. T. O‘zbekistonda sport saytlari (paydo bo‘lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari) : filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 13-b.

<sup>85</sup> Boborajabov E. T. O‘zbekistonda sport saytlari (paydo bo‘lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari) : filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 13-b.

integratsiyasi jarayonini jadallashtirdi hamda konvergent jurnalistika elementlarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Shu bois, sport saytlarining vujudga kelishi va rivojlanishi milliy media makonning raqamli bosqichga o'tishida muhim omil bo'lib, ular bugungi kunda nafaqat axborot tarqatuvchi platforma, balki sport sohasida jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, interaktiv muloqotni ta'minlovchi va ixtisoslashgan media institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

### **O'zbekistonda sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari va raqamli transformatsiya**

"Bugungi kunda sport saytlari nafaqat yangiliklar manbai, balki tahliliy materiallar, statistik ma'lumotlar, video lavhalar va jonli efirlar orqali auditoriya bilan doimiy muloqat olib boruvchi muhim media platformalarga aylandi. Media maydonida raqobatning kuchayishi sport saytlaridan tezkorlik, ishonchlilik va innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Shu jihatdan sport saytlarining rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda o'rganish zamonaviy jurnalistika nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi. Sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari shu qadar keng va tezlik bilan o'smoqda, gohida bu tendensiya hatto saytlar qobig'idan ham chiqib ketmoqda. Buni saytlar negizida tashkil etilayotgan sahifalar, bloglar va shaxsiy akkauntlar misolida kuzatish mumkin. Bugungi rivojlanish davrida faqatgina bitta Sayt bilan auditoriyani to'liq qamrab olish va raqobatchilar ta'qibidan qutilib ketish, amri mahol.

**Sayt bu** - katta platforma bo'lib, unda texnik yutuqlarning barcha jihatlari jam bo'lgan bo'lishi mumkin va bu uning tezkorligiga ham qaysidir mánoda o'z ta'sirini o'tkazishini unutmaslik kerak. Zamonning talabi esa- tezkorlik. Tez berilgan axborot har doim ham yutuq keltirmaydi, agar unga qo'shimcha tarzda sifat va aniqlik bo'lsa, ana shundagina axborot qimmatli bo'ladi. Axborotni bunday qimmatga faqatgina barcha texnik jihatlarni o'zida jamlagan saytlar, platformalar berishi mumkin. Saytlar negizida tashkil etilgan sahifa va bloglar sodir bo'lgan yangilik haqida tezkorlik bilan xabar berishadi va axborotning to'liq va sifatli versiyasini saytda qoldirishadi. Aynan mana shu jihatlar bilan saytlarga kuzatuvchilar oqimi uzluksiz tarzda kirib turaveradi, har bir tashrif buyuruvchi esa say uchun qimmatli mijoz hisoblanadi."<sup>86</sup>

Shuningdek, veb-saytlar tendensiyasini tezlashtirayotgan yana bir muhim omil bu – ilovalardir. Sport saytlarining paydo bo'lganiga chorak asr bo'lib ulgurmay, undagi

<sup>86</sup> Jienbaeva G. Zamonaviy media maydonida sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – № 3 (60). – Б. 462.

o'zgarishlar va o'sish surati haqli ravishda bir necha yuz yillarga teng. Bu o'zgarish va yuksalishlarda so'nggi yillarda paydo bo'la boshlagan turli ilovalarning o'rni beqiyos. Birgina sayt ilovasining yaratilishi va prototipni Google dagi Playmarket sahifasiga joylashtirish, uni sayt kuzatuvchilari tomonidan ko'chirib (skachat) olinishi ortidan butun boshli saytga kirish va undan axborot olish bir necha o'n barobarga osonlashishini inobatga olsak, ilovalarning roli o'sish suratini ya'ni saytlar rivojlanish tendensiyalarini bir necha barobarga ortishini ta'minlaydi.<sup>87</sup>

Sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari platformaviy kengayish jarayoni bilan xarakterlanadi. Ya'ni sayt negizida shakllanayotgan sahifalar, bloglar, ijtimoiy tarmoq akkauntlari va mobil ilovalar yagona media ekotizimni vujudga keltirmoqda. Ayniqsa, mobil ilovalarning joriy etilishi sport kontentining iste'mol qilish jarayonini soddalashtirib, auditoriya qamrovini sezilarli darajada kengaytirmoqda hamda foydalanuvchi faolligini oshirmoqda.

Demak, sport saytlarining media tizimidagi o'rni ularning texnologik moslashuvchanligi, konvergentlik darajasi va auditoriya bilan uzluksiz interaktiv aloqani ta'minlash qobiliyati bilan belgilanadi. Ularning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda o'rganish esa raqamli jurnalistika nazariyasini boyitish, media amaliyotini takomillashtirish hamda milliy media makonning strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Raqamli jurnalistika rivojlanishi sport saytlarining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, internet infratuzilmasining kengayishi va jamiyatda sportga bo'lgan qiziqishning ortishi interaktiv va foydalanuvchi markazli sport platformalarining yuzaga kelishiga olib keldi. An'anaviy ommaviy axborot vositalarining raqamli versiyalari media integratsiyasini tezlashtirib, konvergent jurnalistika elementlarini shakllantirdi. Multimedia, interaktivlik va gipermatnlilik xususiyatlari esa sport voqealarini yanada jonli va ta'sirchan yoritish imkonini berdi.

Misol tariqasida sport.uz<sup>88</sup> sayti O'zbekiston sport yangiliklari va tahliliy kontentini yetkazuvchi yetakchi onlayn platforma sifatida namoyon bo'ladi. Sayt futbol, basketbol, boks va boshqa sport turlarini qamrab olgan holda yangiliklar, tahliliy maqolalar, statistik

<sup>87</sup> Boborajabov E. T. O'zbekistonda sport saytlari (paydo bo'lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari) : filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 23-b.

<sup>88</sup> <https://share.google/LIDze5O07ZmKSW18S>

ma'lumotlar, turnir jadvali va infografikalarni taqdim etadi. Kontent strukturasi aniq va tezkor yangilanishi, multimedia imkoniyatlari, interaktiv elementlar va foydalanuvchi bilan uzluksiz aloqasi saytning milliy sport auditoriyasi bilan bog'lanishida muhim rol o'ynaydi. Sayt raqamli media bozorida o'z pozitsiyasini mustahkamlab, reklamaviy va monetizatsiya mexanizmlari orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlaydi. Shu bilan birga, tahliliy chuqurlik, vizual va audiovizual elementlar, foydalanuvchi kontenti (UGC) integratsiyasi kabi sohalarida yanada rivojlanishga ehtiyoj mavjud.

Shunday qilib, O'zbekiston sport saytlarining shakllanishi va rivojlanishi milliy internet segmentining o'sishi bilan uzviy bog'liqdir. Ular bugungi kunda nafaqat axborot tarqatuvchi manba, balki auditoriya bilan ikki tomonlama muloqot olib boruvchi, interaktiv va konvergent media platformasi sifatida faoliyat yuritadi. Bu jarayon sport jurnalistikasining klassik "translyator modeli"dan "interaktiv media modeli"ga o'tishini ko'rsatadi. Shuningdek, platformaviy kengayish, mobil ilovalar integratsiyasi va ijtimoiy tarmoqlar bilan sintez orqali sport saytlarining rivojlanish sur'ati ortmoqda.

Demak, sport internet nashrlarini ilmiy asosda tahlil qilish nafaqat raqamli jurnalistika nazariyasini boyitadi, balki milliy media makonining strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va amaliy jurnalistika sifatini oshirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### **Xulosa va takliflar**

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston media makonida sport internet nashrlarining shakllanishi tarixiy, ijtimoiy va texnologik omillar uyg'unligi asosida kechgan murakkab evolyutsion jarayondir. Sport jurnalistikasi dastlab ma'rifiy-ma'naviy diskurs doirasida vujudga kelgan bo'lsa, sovet davrida mafkuraviy kommunikatsiya vositasiga aylangan, mustaqillikdan keyin esa bozor tamoyillari asosida yangicha mazmun va shakl kasb etgan.

Raqamli bosqichga o'tish sport jurnalistikasining funksional modelini tubdan o'zgartirdi. Sport saytlarining paydo bo'lishi milliy internet segmentining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshib, ular an'anaviy "translyator modeli"dan interaktiv, multimediaviy va foydalanuvchi markazli modelga o'tganini namoyon etdi. Bugungi kunda sport saytlarining media tizimidagi o'rnini ularning konvergentlik darajasi, texnologik moslashuvchanligi, tezkorlik va sifat mezonlariga amal qilishi bilan belgilanadi.

Shuningdek, sport internet nashrlarining rivojlanish tendensiyalari platformaviy kengayish, mobil ilovalar integratsiyasi, ijtimoiy tarmoqlar bilan sintez, vizualizatsiya va monetizatsiya mexanizmlarining takomillashuvi orqali namoyon bo'lmoqda. Natijada sport

saytlar nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, auditoriya bilan interaktiv muloqot qiluvchi va ixtisoslashgan raqamli media institut sifatida faoliyat yuritmoqda.

**Quyidagilar taklif etiladi:**

Nazariy jihatdan, sport internet nashrlarini raqamli jurnalistika, konvergent media va platforma nazariyasi doirasida kompleks o'rganish metodologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

Amaliy jihatdan, sport saytlarida kontent vizualizatsiyasi, ma'lumotlar jurnalistikasi (data journalism) va multimedia elementlarini yanada takomillashtirish zarur;

Mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlarini joriy etish orqali auditoriya bilan individual muloqot mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq;

Milliy sport internet nashrlarining xalqaro media maydonga integratsiyasini ta'minlash, ko'p tilli platformalarni rivojlantirish zarur;

Umuman olganda, sport saytlarining shakllanishi va rivojlanishi O'zbekiston media makonining raqamli transformatsiyasida muhim bosqichni tashkil etadi hamda mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zamonaviy jurnalistika nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boborajabov E. T. O'zbekistonda sport saytlari (paydo bo'lishi, faoliyat yuritishi va rivojlanish tendensiyalari) : filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 23 b.

2. Fizkultura va sport, 1945–1991 yillar. Ma'lumotlar O'zbekiston Sovet davri matbuoti va sport jurnalistikasi tarixi asosida umumlashtirilgan / Mamatqulov R. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. – Toshkent : [nashriyot nomi], 2018.

3. Jienbaeva G. Zamonaviy media maydonida sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – № 3 (60). – В. 462.

4. Turkiston viloyatining gazetasi, 1910–1917 yillar; Sadoi Turkiston, 1912–1917 yillar. Ma'lumot O'zbekiston jurnalistikasi tarixi va jadid matbuoti tahlili asosida umumlashtirilgan / Mamatqulov R. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. – Toshkent : [nashriyot nomi], 2018.

5.Yılmaz Ö. The Effects of Digitalisation on Journalism: Changes and Transformations in Turkish Sports Journalism // İletişim Kuram ve Araştırma Dergisi. – 2025. – Vol. 70. – P. 35.

